



INTEGRATIV TA'LIM MUHITIDA TALABALAR KASBIY KOMPETENSIYALARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI

PhD, dots. **Akbarova Sayyora**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0000-0002-1242-2580
s.akbarova2704@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada integrativ ta'lim muhitida talabalar kasbiy kompetensiyalarini samarali rivojlantirish mexanizmi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh va kreativ fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlash zarurati bilan asoslanadi. Maqolada integrativ yondashuvning mazmun-mohiyati, uning ta'lim jarayonidagi o'rni hamda fanlararo integratsiya asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish omillari yoritilgan.

Kalit so'zlar: umumkasbiy fanlar, integratsiya, uzluksizlik, uzviylik, mutaxassislik, kompetentlik, ta'lim, kompetensiya, zamonaviy yondoshuvlar.

МЕХАНИЗМ ЭФФЕКТИВНОГО РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ИНТЕГРАТИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ

PhD, доц. **Акбарова Сайёра**
Ташкентский государственный
экономический университет

Аннотация. В данной статье научно-теоретически и практически анализируется механизм эффективного развития профессиональных компетенций студентов в условиях интегративной образовательной среды. Актуальность исследования обосновывается необходимостью подготовки конкурентоспособных специалистов, соответствующих требованиям современного рынка труда и обладающих креативным мышлением. В статье раскрываются сущность и содержание интегративного подхода, его роль в образовательном процессе, а также факторы формирования профессиональных компетенций на основе междисциплинарной интеграции.

Ключевые слова: общие науки, интеграция, преемственность, связность, специализация, компетентность, образование, компетентность, современные подходы.

MECHANISM FOR THE EFFECTIVE DEVELOPMENT OF STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCIES IN AN INTEGRATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

PhD, assoc. prof. **Akbarova Sayyora**
Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the mechanism for the effective development of students' professional competencies within an integrative educational environment. The relevance of the study is justified by the need to train competitive specialists who meet the requirements of the modern labor market and possess creative thinking skills. The article highlights the essence and content of the integrative approach, its role in the educational process, as well as the factors influencing the formation of professional competencies based on interdisciplinary integration.*

Keywords: *communication, competence, interdisciplinary integration, education, competence, specialist, modern approaches, pedagogical activity.*

Kirish.

Hozirgi globallashuv va raqamli transformasiya sharoitida mehnat bozorida raqobatbardosh, mustaqil fikrlay oladigan, muammolarni kompleks yechishga qodir mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda mutaxassisdan faqat nazariy bilim emas, balki kompleks, ko'p qirrali, amaliy hamda ijtimoiy kompetensiyalarga egalik talab etilmoqda. Shu bois, yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, zamon talablari asosida mustaqil va tanqidiy fikrlay oladigan yetuk kadrlarni tayyorlash ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy muammolarni samarali hal etishning strategik omiliga aylanmoqda. Mazkur sharoitda barcha fanlarni o'qitish jarayoni tizimli va o'zaro muvofiqlashtirilgan holda tashkil etilishi zarur. Bu esa yagona strategik maqsad – davr talablariga moslasha oladigan, kasbiy faoliyatning turli sohalarida samarali ish yuritishga qodir tarmoqli mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirilishi lozim.

Ta'lim sifatini oshirish bugungi kunda jahon hamjamiyati oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etish ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishni, ta'lim jarayoniga innovasion pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy etishni, shuningdek, ta'limning yakuniy maqsad va natijalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Ta'limni jamiyat madaniyatini o'zlashtirish asosida ta'lim oluvchilar faoliyatini turli sohalarda, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatini rivojlantirishning maxsus tashkil etilgan jarayoni sifatida qarash mumkin. Ta'lim maqsadini bunday tushunish esa, o'z navbatida kompetentli yondashuvni ro'yobga chiqarish uchun asos yaratadi.

Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishni pedagogik muammo sifatida tahlil etar ekanmiz, mamlakatimizda ta'lim tizimini tizimli isloh qilish va uni yangi bosqichga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanganini ta'kidlash zarur. Xususan, O'zbekiston–2030 strategiyasi doirasida zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatli, mustaqil va tanqidiy fikrlay oladigan, kommunikativ hamda kasbiy kompetensiyalari rivojlangan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Mazkur strategiyada ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayoniga innovasion va raqamli texnologiyalarni joriy etish, ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, shuningdek, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa talabalarning kasbiy kompetensiyalarini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish masalasi davlat miqyosidagi strategik ahamiyatga ega

ekanligini va mazkur pedagogik muammoni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish zaruratini yanada dolzarblashtirishini ko'rsatadi.

Adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillarda ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta'lim, fan hamda ishlab chiqarish integrasiyasi asosida rivojlantirish, jahon sivilizasiyasi yutuqlaridan keng foydalanish, xalqaro ilg'or tajribalarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda o'qitish jarayoniga ilg'or pedagogik va raqamli texnologiyalarni yo'nalishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni talab etmoqda. Xususan, Ta'lim to'g'risida Qonunda ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish, ularda innovasion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, o'quv dasturlarini innovasion texnologiyalar asosida amalga oshirish, ta'lim shakllarining xilma-xilligini (kunduzgi, sirtqi, kechki, masofaviy) ta'minlash, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish kabi muhim normalar belgilab berilgan. Shuningdek, fuqarolarning bepul umumiy o'rta, o'rta maxsus va boshlang'ich professional ta'lim olish huquqi, shu jumladan, eksternat tartibida attestasiyadan o'tish imkoniyati huquqiy jihatdan mustahkamlangan (Qonun, 2020). Shu bilan birga, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" (Mirziyoyev, 2019) farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi 606-son "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida" (Qaror, 2019) qarorida oliy ta'lim muassasalari faoliyatini modernizasiya qilish, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integrasiyani kuchaytirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muayyan nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, ushbu maqola mazkur sohadagi islohotlarni ilmiy jihatdan asoslash va amaliyotga samarali tatbiq etishga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Vetviskayaning (2013) fikricha, integrasiya – o'zaro bog'langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq ekani ta'kidlanadi. Integrasiya turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish jarayoni. Integrasiya jarayonlari tashkillashtirilgan tizimlarda bo'lishi mumkin – bu holda ular tizim butunlik darajasini va tashkillashtirilgan darajasini ko'taradi.

Avazboyev va Ismadiyarovlar (2014) ta'rificha integrasiya – u yoki bu fanning ularni unifikatsiyalar va majmualashtirishga olib keladigan tarkibiy qismlarning yagona dunyoqarash mantiqiy-metodologik o'zaro ta'siri jarayoni. Fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida, integrasiya jarayoni differentsiatsiya jarayoniga nisbatan ustunlik qilmoqda. Ilmiy bilimlar differentsiatsiyasi fan, texnika taraqqiyotida ma'lum ahamiyatga ega, ammo u hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi. Bu vazifani ilmiy bilimlar integratsiyasi jarayoni bajaradi.

Shutova (2015) fanlarni integratsiyalashtirish holda o'qitish ularning tutash mavzularini bir vaqtda va bir-biriga bog'liq holda o'rganish imkoniyatini yaratadi deb hisoblaydi. Integratsiyalashtirish fanlarni o'qitishning yangicha yondashuvidir. Bunday darslar turli fanlarning o'quv materiallari bir-birini to'ldirishi hisobiga vaqtni tejash imkoniyatini beradi.

Bizning fikrimizcha, integrativ ta'lim muhitida talabalar kasbiy kompetensiyalarini samarali rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda zamonaviy mehnat bozori talablariga mos mutaxassislar yetishtirishning muhim omili sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur ishda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini integrativ yondashuv asosida

rivojlantirishning mazmuni, maqsadi, vazifalari o'rganildi.


Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishga oid adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, pedagog, psixolog, sosiolog olimlarning ushbu mavzuda olib borgan izlanishlari, olimlar va soha vakillarining yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish jarayonlarni kuzatish amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jamiyatimiz rivojlanish bosqichida, integrasiya jarayoni differensasiya jarayoniga nisbatan ustunlik qilmoqda. Ilmiy bilimlar differensasiyasi fan, texnika taraqqiyotida ma'lum ahamiyatga ega, ammo u hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi. Bu vazifani ilmiy bilimlar integrasiyasi jarayoni bajaradi.

Ta'lim tizimiga tatbiq etilganidek, "integrasiya" konsepsiya sifatida ikki xil ma'noga ega: *birinchi navbatda*, u talabalar atrofidagi dunyoning yaxlit ko'rinishini hosil qiladi (bu yerda integrasiya ta'limning maqsadi deb hisoblanadi), *ikkinchidan*, u mavzu bilimlarining yaqinlashishi uchun umumiy platformani topadi (bu yerda integrasiya – o'rganish vositasi). Amalda bilimlarning integrasiyalashuvidan maqsadga yo'naltirilmagan holda foydalanish ko'proq darajada amalga oshiriladi. Uzoq muddatli kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, umumkasbiy fanlar bo'yicha o'qiyotgan talabalar matematika, fizika va informatika fanlarini o'rganishda bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llashda qiyinchiliklarga duch keladi. Ularda mustaqil fikrlash, olgan bilimlarini o'xshash bo'lgan masalalarga tatbiq etish yoki boshqa holatlarga o'tkazish qobiliyati kabilar shakllanmagan bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitishda hych qanday ketma-ketlik, izchillik yo'q, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining ishchi dasturlari o'quv vaqtida muvofiqlashtirilmaydi. Shuning uchun o'quv materiallari takrorlanishi, tegishli bo'limlarni o'rganishning mantiqiy ketma-ketligini buzish, shartlarning nomutanosibligi kabi bir qator tushunmovchiliklarga duch kelinadi.

Ta'lim jarayonida integrasiya ma'lum fan doirasida va fanlararo bo'lib, uni dars mashg'ulotlarida amalga oshirish integrativ yondashuv jarayoni bo'lib hizmat qiladi.



1-rasm. Ta'lim jarayonidagi integratsiya

Yuqoridagi 1-rasmni tahlil qilar ekanmiz, ta'lim jarayonidagi integrasiya asosan ma'lum fan doirasidagi integrasiya va fanlararo integrasiyaga bo'linib tahlil qilindi.

Turli ilmiy yondashuvlarni umumshtirgan holda, integrasiyani birlashuv va murakkablik darajasining ortishi bilan tavsiflanuvchi, ayrim fanlarning strukturaviy elementlari yagona mafkuraviy hamda mantiqiy-metodologik asoslar negizida o'zaro ta'sirga kirishadigan jarayon sifatida talqin qilish mumkin. Shu nuqtai nazardan, fanlar integrasiyasi muayyan tuzilishga ega bo'lgan tizim sifatida qaralishi, shuningdek, o'z rivojlanish

bosqichlariga ega obyektiv va qonuniyatli jarayon sifatida e'tirof etilishi lozim. Integrativ yondashuv esa turli fanlarni o'zlashtirish jarayonida shakllangan bilim, ko'nikma, malaka va tajribalarni hisobga olish, ularni o'zaro uyg'unlashtirish va amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv chet tillarda muloqot qilish, kasbiy shakllanish va moslashish, kasbiy kommunikativlik hamda kasbiy kompetentlikni izchil va mutanosib rivojlantirish imkonini beradi.

Boshqariladigan bilimlar integrasiyasini amalga oshirishda ikki asosiy yo'nalish ajratiladi. Birinchi yo'nalish an'anaviy xarakterga ega bo'lib, unda o'qituvchi muayyan davr mobaynida ikki yoki undan ortiq fanlar mazmuni o'rtasidagi tabiiy aloqadorlikni ochib beradi va o'quv materialini o'zaro bog'liq holda taqdim etadi. Ikkinchi yo'nalish esa integrasiyalashuv jarayonining konseptual asosini tashkil etadi. U muayyan sohada (jumladan, texnika yo'nalishlarida) alohida fanlar chegarasiga to'liq mos kelmaydigan, balki kompleks xarakterga ega bilim va ko'nikmalar majmuini tanlash hamda ularni tizimli ravishda shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv fanlararo chegaralarni shartli deb qarab, integrasiyani ta'lim mazmunini yangilash va kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishning muhim omili sifatida baholaydi.

Ta'lim jarayonini integrativ dasturlar va darsliklar asosida tashkil etish nazarda tutilganda, integrasiyaning turli daraja va shakllaridan maqsadli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

1. Mavzularni ketma-ketlik asosida integrasiyalash. Bu shaklda o'quv materialini bayon etishda konsentrizm prinsipiga amal qilinadi, ya'ni avvalgi bilimlar keyingisini mazmunan boyitadi va to'ldiradi, biroq takrorlanmaydi. Natijada talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari, shuningdek, ijodiy faoliyati izchil va bosqichma-bosqich rivojlanib boradi.

2. O'quv dasturlarida mazmunan uyg'un nuqtalarni shakllantirishga asoslangan integrasiya. Bu yondashuvda turli fanlar mazmuni o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash orqali tautologiya va mazmun takrorlarining oldi olinadi. Natijada talabaning vaqti va intellektual sa'y-harakatlari tejaladi, darsliklar hajmi ixchamlashadi hamda ularning iqtisodiy samaradorligi ortadi.

3. Modullashgan integrasiya. Bunda turdosh o'quv fanlariga oid bilim va tushunchalar yagona tizimga solinib, modullar ko'rinishida uzviy va mantiqiy bog'liqlikda taqdim etiladi. Mazkur shakl talabalarda yaxlit tasavvur va kompleks fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

4. Integrativ dasturlar. Ushbu tipdagi dasturlar bir nechta o'quv predmeti yoki fanlariga oid mavzularni uyg'unlashtirilgan holda taqdim etishni nazarda tutadi. Hozirgi kunda o'quv rejalarida fanlar soni ortib borayotganini hisobga olganda, mazmunni ixchamlashtirish va tizimlashtirishga qaratilgan bunday dasturlarga ehtiyoj tobora kuchaymoqda.

5. Mavzulararo integrasiya. Bu shaklda muayyan kurs doirasidagi o'quv materiallari mazmunan yaqin bo'lgan boshqa kurs materiallari bilan o'zaro bog'liq holda o'rganiladi. Natijada talabalarda fanlararo aloqadorlikni anglash, bilimlarni amaliyotga kompleks tatbiq etish qobiliyati shakllanadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, o'quv jarayonida fanlararo aloqalardan samarali foydalanish, o'quv materialini muntazam va izchil o'zlashtirishni ta'minlash, amaliy vazifalarni ishlab chiqishda zamonaviy ilmiy-texnik adabiyotlardan foydalanish, mavzu doirasidagi bilimlarni integrasiyalash va chuqurlashtirish, shuningdek, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yuqorida bayon etilgan fikrlarga tayangan holda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, ta'lim jarayonida integrasion aloqalarni muntazam aniqlash va samarali qo'llash maqsadida fanlar integrasiyasiga oid didaktik materiallar hamda metodik ta'minotni ishlab chiqish zarur.

Ikkinchidan, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining samaradorligi tashqi va ichki omillar, ta'lim shakllari va usullari, faoliyat algoritmlari hamda muammolarni hal etish strategiyalarini zamon talablari asosida takomillashtirish bilan bevosita bog'liq. Shu bois mazkur yo'nalishda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Uchinchidan, turli fanlarni o'rganish jarayonida integrasion aloqalarni qo'llash uchun tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish talab etiladi.

To'rtinchidan, fanlararo bilimlarni umumlashtirish va kompleks masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan samarali o'quv mashg'ulotlari shakl va modellarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Mazkur takliflarni amaliyotga tatbiq etish ta'lim sifatini oshirish, talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda ularning integrativ fikrlash qobiliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar / Jumepamypa / Reference:

Avazboyev A.I. va Ismadiyarov Ya.U. (2014) "Kasbiy pedagogika". O'quv qo'llanma. "Fan va texnologiyalar" nashriyoti. –T.: – 396.

Qaror (2019) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 19 iyuldagi 606-son "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida" Qarori.

Qonun (2020) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni – T.: 2020 yil, 23 sentyabr //O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi: [www Lex.uz](http://www.lex.uz)

Shavkat Mirziyoyev (2019). O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son [Farmoni. https://lex.uz/](https://lex.uz/)

Ветвицкая С.М. (2013) Интегративный подход в исследовании этноса // Перспективы науки – № 3(42). – С. 232–235.

Мусаханова Г.М. (2022). Направления развития навыков самостоятельного обучения студентов в условиях цифровизации экономики. Международный журнал исследований и обзоров социальных наук,5(1), 64–67. <https://doi.org/10.47814/ijssrr.v5i1.160>.

Шутова И.П. (2015) Интегративный подход в содержании экологической подготовки будущих учителей / И.П. Шутова // Вестник Северного (Арктического) федерального университета. – Серия: Гуманитарные и социальные науки. С. 147–154.